

BOLANING IJTIMOYILASHUV JARAYONIDAGI OMILLAR HAMDA OIL A VA JAMIYATNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12529688>

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

Namangan Davlat Pedagogika instituti stajyoir-o'qituvchisi

Tel: +998993220141

Annotatsiya

ushbu maqolada bolalarning ijtimoiylashuvi bosqichlari, moslashuvi jarayonlari, ijtimoiylashuv davrining yoshga nisbatan belgilari, ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda oila, mahalla, bog'cha va maktabning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar

ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy ko'nikma, ijtimoiylashuv, oila, jamiyat, individuallasuv. ijtimoiylashuv bosqichlari, tanqidiy fikrlash, integratsiyalashuv, psixologik mexanizm, sotsial norma, moslashuv, individuallasuv integratsiyalashuv:

Abstract

this article discusses the stages of children's socialization, adaptation processes, age-related signs of the socialization period, the importance of family, neighborhood, kindergarten and school in the formation and development of social skills.

Key words

social adaptation, social skills, socialization, family, society, individualization. stages of socialization, critical thinking, integration, psychological mechanism, social norm, adaptation, individualization integration:

ФАКТОРЫ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ РЕБЕНКА И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЬИ И ОБЩЕСТВА

Ахмаджанова Муаззам Исламжановна

*Стажер-преподаватель Наманганского государственного педагогического
института*

Телефон: +998993220141

Аннотация

В данной статье рассматриваются этапы социализации детей, процессы адаптации, возрастные признаки периода социализации, значение семьи, соседства, детского сада и школы в формировании и развитии социальных навыков.

Ключевые слова

социальная адаптация, социальные навыки, социализация, семья, общество, индивидуализация. этапы социализации, критическое мышление, интеграция, психологический механизм, социальная норма, адаптация, интеграция индивидуализации:

Jadal suratlarda rivojlanayotgan globallashuv zamonida har qanday davlat siyosatining eng muhim masalasi yosh avlodni tarbiyalash hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, milliy tarbiya va ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa ta'lim sohasida ko'plab islohotlar va o'zgarishlar ro'y berdi. Istiqlolni asrab-avaylaydigan, fikrda erkin, o'z haq-huquqini yaxshi biladigan, izlanuvchan, zamonaviy bilimlarga ega, el-yurtga, ona Vatanga sadoqatli, vatanparvar, o'z kuchi va aql-zakovati bilan yashaydigan fuqaro o'z shaxsiyati bilan yashaydi. O'z manfaatlarini xalq va Vatan manfaatlari bilan uyg'unlikda ko'radigan barkamol va intellektual yetuk shaxsni, komil avlodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi. O'qituvchi va oila a'zolari kechiktirib bo'lmaydigan bu masala bolaga yoshligidanoq to'g'ri tarbiya berish, ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'naltirishga e'tibor berish, olgan nazariy bilimlarini hayotda qo'llay bilish malakalarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'zining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi" asarida xalqimizda "Ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi" degan hikmatli naql bor. Faqat ma'rifatgina insonni kamolotga, jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydi. Shu bois mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi tamoyiliga asoslanib, bolani tug'ilgandan to 30 yoshgacha, butun umri davomida har tomonlama qo'llab-quvvatlamoda. Ularning munosib joy topishiga yordam beradigan keng qamrovli va uzluksiz tizim yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda" - deya aytgan fikrida ta'lim -tarbiya masalsining jamiyat va davlat hayotida muhim ekanligini guvohi bo'lamiz. [1]

Har bir odam jamiyatda shakllanadi va o'z shaxsini topadi. Jamiyat insonning shaxs bo'lib rivojlanishi uchun eng muhim omil. Inson va jamiyatning o'zaro ta'siri natijasida ijtimoiylashuv jarayoni sodir bo'ladi. Shaxs ma'lum bir jamiyatga kirganda, aynan o'sha jamiyatning qonun-qoidalariga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Ushbu jamiyat uning tafakkuri va hayot tarziga ta'sir qiladi. Ammo shaxs ham keyinchalik o'zining boshqa jamiyatlarda orttirgan bilimi, tajribasini bu jamiyatga

ham olib kira boshlashi o'z navbatida jamiyatning o'zgarishi, takomillashishiga ta'sir qiladi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni butun umri davomida davom etadi. Sababi jamiyat doimo rivojlanishda bo'ladi, doimiy o'zgarishlar va yangilanishlarni o'zida sinab ko'radi. Jamiyatda yashayapgan insonlar ham bu yangilanishlarga moslashishga majbur bo'ladi. Aksincha boshqa jamiyatlarga ketish yoki ajralib chiqishlariga yoki yolg'izlikda hayot kerishlariga to'g'ri keladi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda ko'plab jamiyatlar oldingi davrlardan ko'ra bag'rikengroq va tolerantroqligi haqiqat. "Ijtimoiylashtirish jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir".[2] Jamiyat a'zolari umumbashariy va milliy qadriyatlarni hurmat qilsa, jamiyat qonunlariga bo'ysinsa, o'z huquq va burchlarini yaxshi bilsa, o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib borsa, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ysa o'sha jamiyat gullab-yashnaydi, ravnaq topadi.

Jamiyatning yacheykasi esa oiladir. Oila jamiyatning negizi, asosiy xom-ashyosi hisoblanadi. "Pedagogikada shaxs ijtimoiylashuvida asosiy uch holat, ya'ni faoliyat, muomala va o'z-o'zini idrok etish ajratiladi. Shu holatlarning ilk o'rgatilishi va amaliy qo'llanilishi oilada kechadi". Oila tarbiya o'chog'i. Har bir shaxs ilk hayotiy va ijtimoiy bilimlarni oilada oladi. Tabiat, borliq, atrof-muhit, narsa va xodisalarni shu dargohda anglaydi hamda jamiyatga asta moslasha boshlaydi.

Odam bir necha bosqichlarda jamiyatga moslashib boradi. Ular o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan jarayon. Bolaning ilk bosqichda olgan ko'nikmalari keyinchalik takomillastiriladi va ijtimoiylashuvning boshqa xususiyatlarini paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Shuningdek rossiyalik pedagog olim A.V.Petrovskiy tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ijtimoiylashuv jarayonini uchta bosqichga ajratadi: "a) moslashuv, b) individuallashuv v) integratsiyalashuv".[3]

Bolaning chaqaloqlik davri bosqichi chaqaloqning dastlabki 2 yilini qamrab oladi. Bu bosqichda kattalar bilan muloqoti muhim ahamiyatga ega. Bola salbiy va ijobiy his-tuyg'ularni ajratib olishni, murojaatga javob berishni o'rganadi.

Erta bolalik davri ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bola dunyoni faol organadi, shu bilan birga obyektlar bilan ishlashni, ularni boshqarishni o'rganadi. Bu bosqichda ham ijtimoiylashuv agenti asosan ota-onalar va oiladagi boshqa a'zolar hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalik uch yoshdan yetti yoshgacha davom etadi. Ushbu davrdagi vetakchi faoliyat o'yin faoliyati. Bu bosqichda bola oiladan

tashqaridagi jamiyatga faol aralasha boshlaydi. Bog'chadagi, mahallasidagi tengdoshlari bilan o'ynashni boshlaydi. Ammo bu bosqichda bola shaxsiyatining ijtimoiylashuvi jarayoni o'yinlarda rol o'ynash orqali sodir bo'ladi. Jamiyatning kichik a'zosi tengdoshlari bilan kichik jamiyat bo'lgan oiladagi turli xil rollarni bo'lib olib o'ynashni o'rganadi. Shu bilan u asosiy me'yorlar va qadriyatlarni, avvalambor, oilani qabul qila boshlaydi.

Kichik maktab yoshi 7 yoshdan 11 yoshgacha davom etadi. Bola rivojlanishining ijtimoiy holati jiddiy o'zgarishga uchraydigan bosqichi. Bu davrda u maktabga ya'ni ta'lim dargohiga chiqadi va uning zimmasiga ma'lum qoidalarga amal qilish, vazifalarni bajarish kabi ma'suliyatlar tushadi. Yangi sharoitlarga moslashish jarayonida asosiy ijtimoiylashuv agenti o'qituvchisi hisoblanib bola ba'zan ota-onasiga nisbatan u bilan ko'proq muloqot qiladi.

O'smirlilik davri 10-12-14 yoshni qamrab oladi. Yangi bilimlar yordamida, mustaqil fikrlash shakllana boshlaydi, shuningdek, tengdoshlari va atrofdagilar bilan faol o'zaro munosabatlarga kirishadi. Dunyoni o'zi istagancha tasvvur eta boshlaydi, jamiyat me'yorlari va talablariga o'rganishni davom ettiradi. A.G.Gresov o'z asarida shunday yozadi: "Biologik nuqtai nazardan o'smirlar butunlay katta odamga aylanadilar, lekin, jamiyatning nazarida ular hanuzgacha bola hisoblanadi. Oilada katta avlod vakillari o'smirlarga kichik bolaga muomala qilganday munosabatda bo'ladilar. O'smirlilik davrida "bola buziladi" degan fikr, oldingi avlodlardan meros fikr ham hisoblanishini unutmazlik kerak. [4] Ba'zilar to'liq, ko'r-ko'rona bo'ysinishi, tanqidiy fikrga ega bo'lmasligi ham mumkin.

Erta o'spirinlik davri 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarni qamrab oladi. Ushbu bosqichda har bir o'g'il yoki qiz hayotida bir nechta muhim voqealar sodir bo'ladi. Bu balog'at yoshi, unda yoshlar kattalar dunyosiga aralashadilar, o'qishlarni yakunlash, shu bilan birga mustaqilroq bo'ladi. Jamiyatga yanada ko'proq aralashishga majbur bo'ladi. Ijtimoiylashuvga ehtiyoj ortadi.

Kechki o'spirinlik davri 18-25 yoshni tashkil etadi. Shaxs mehnat faoliyatida faol ishtirok etadi. Ba'zilar o'qishni davom ettiradi, kasb-hunar egallaydi. Yoshlar asta-sekin jamiyatning ijtimoiy me'yorlarini o'rganadilar va qabul qiladilar. Boshqa insonlar bilan o'zaro aloqada bo'lishni, mehnat vazifalarini taqsimlashni va ularni bajarishni o'rganadilar. Shaxsiyat ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlanadi.

Voyaga yetish davri 25-65 yosh. Inson mehnat faoliyatida yaxshilanadi va o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga farzandlariga, atrofidagi insonlarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish bilan ham shug'ullanadi.

Mehnatdan keyingi faoliyat 65 yosh va undan yuqori bo'lgan davr hisoblanadi. Inson nafaqaga chiqadi, hayotning ba'zi natijalarini sarhisob qiladi.

Yoshlarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatishda faol darajaga yetadi. Agar ijtimoiy me'yorlar uning yoshligidan ko'ra keskin o'zgargan bo'lsa yoshlik davridagi ijtimoiy me'yorlarni qumsab, hozirgi ijtimoiy me'yorlarni faol tanqid qilishga o'tadi. Lekin bu avlod vakillari jamiyatning an'ana va qadriyatlarini keskin buzilib ketishini oldini oluvchi himoya qatlami hamdir.

Ijtimoiylashuv jarayoni o'z ichiga ijtimoiylashuv omillari kabi tushunchani ham oladi. Bular bolaning ijtimoiylashuvidagi turli makonlar bo'lib oila, mahalla, bog'cha, maktab mikrofaktor omillariga kirsa, global munosabatlar, tarix, badiiy adabiyot kabilar megafaktorlarga kiradi. Bolalarning ijtimoiylashuvini shakllantiradigan dastlabgi omil bu oila yani ota-ona, oila a'zolafridir. Ammo ana shu vakillar avvalo o'zlari yuqori tajribaga ega bo'lishlari, ilmiy, diniy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy bilimlarga ega bo'lishlari, voqea-xodisalarga nisbatan tahliliy va tanqidiy fikr bildira olishlari, jamiyat me'yorlari va normalariga amal qilishlari, qadriyatlarni hurmat qilishlari hamda amal qilib davom ettirishlari lozim. Shundagina har bir voyaga yetayotgan millat farzandi o'z yurtiga foydasi tegadigan, "vatan meng anima berdi ?- deb emas, men vatanga nima berdim ?" degan aqida bilan yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T: O'zbekiston. 2023 yil.
2. N.M.Egamberdiyeva "Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. Ped.f.dokt.....diss.avt.-Toshkent: 2010.
3. Petrovskiy A.V. Всегда ли правы родители А.В. Петровский М.: Изд-во Аст, 2003.
4. Практическая психология для родителей и подростков. СПб.: «Питер», 2006.